



МАКТАБ О‘QUVCHILARIDA ATROF- MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA MAS’ULIYATLILIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Bo‘ranova M.N.

Termiz davlat pedagogika instituti biologiya va uni oqitish metodikasi kafedrasi erkin tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: atrof-muhid, ekalogik ta’lim, tarbiya, kompetensiya, ekalogik madaniyat, shakl, metod, va vositalar, hudud, umumta’lim maktabi, pedagogik muammo, muhofaza qilish, shakllantirish, texnologiya.

Ключевые слова: окружающая среда-среда, экалогика обучения, воспитания, компетентности, экалогика культуры, формы, методы и средства, территория, общеобразовательная школа, педагог головоломка, защита, формирование, технология.

Key words: environmental education, ecological education, upbringing, competence, ecological culture, form, method, and tools, Area, Comprehensive School, pedagogical problem, protection, formation, technology.

Ma’lumki, dunyo ta’lim-tarbiya jarayonining tub mohiyati o‘quvchilarni hayotga tayorlash va o‘qish, yashashga o‘rgatish, ularda atrof-muhidni muhofaza qilish bo‘yicha mas’uliyat hissini shakllantirish orqali ta’lim samaradorligiga erishish, shuningdek, sifatni boshqarish paradigmasini joriy etishga alohida e’tibor qaratish, shuningdek, muhofaza qilish va undan to‘g‘ri foydalanish borasidagi global muammolar ustida BMT ning bolalarga yordam ko‘rsatish jamg‘armasi (YuNISEF), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE) talablaridan kelib chiqib, o‘quvchilarga tabiiy hududlarni asrash orqali ekologik ta’lim-tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish, ularning tabiatga ijobiy munosabatini shakllantirish dolzarblik kasb etmoqda.

Xususan, jahon amaliyotida etakchi ilmiy markazlar, ayniqsa umumta’lim muassasalari tomonidan ekologik ta’lim-tarbiya berish texnologiyalarining modifikatsiyalarini ta’lim jarayoniga intensiv tatbiq qilish muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatni asrash, tabiiy resusrlardan oqilona foydalanish, aholi salomatligini muhofaza qilishda ekologik toza mahsulotlardan foydalanish

tartibini kuchaytirish va yosh avlod ongiga ekologik madaniyatni singdirishning mobil va ta'sirchan modellarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarga tabiatni asrashni uzviylikda o'rgatishni, ekologik ta'lim shakllarini optimallashtirishni, texnologiyalarini takomillashtirishni, ekologik madaniyat mezonlarini tizimlashtirishni, o'qitishning variativ va integrativ yondashuvlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy masala sifatida aholi o'rtasida atrof-muhidni muhofaza qilish hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tabiatni asrash orqali ekologik tarbiya berish sifatini yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashda sifat ko'rsatkichlarini yaxlitlashtirish hamda maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalar umumta'lim maktablarida o'quvchilarga atrof-muhidni muhofaza qilishning mazmunini fanlararo integratsiya asosida optimallashtirishni, sinflar kesimida variativ o'quv dasturlarini takomillashtirishni, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Shuningdek, maktab o'zuvchilarida atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatni takomillashtirish ijobiy natijalarga olib keladi. Globallashuv jarayonlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, tashqi ta'sir va jamiyat talablari ijtimoiy siyosiy sohadagi sifat o'zgarishlarga bog'liq globallashuv jarayonlariga nisbatan o'quvchi o'z hayot faoliyati davomida ma'lum bir munosabatda bo'ladi. Bu munosabat o'quvchilarni ichki ehtiyojlari va hoxishlarini ifodalaydi, oquvchilarni kasbiy va shaxsiy sifatlarini jamiyat talablari darajasida rivojlantirish orqali hayotda raqobatbardoshligini ta'minlash natijaga erishiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 26-moddasida ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruv organlari ta'lim-tarbiya jarayonlariga o'qitishning ilg'or shakllari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik axborot vositalari joriy etilishini ta'minlash, 35-modda ta'lim jarayoniga o'quv rejaları va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi.

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha nazariy, amaliy va virtual usulda o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmoqda. Umumta'lim maktablarida yoshlarni tarbiyalash va ularni ta'minlashda maktabdan tashqari mashg'ulotlarning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etishda, biologiya darslarida oqitishning zamonaviy shakl, metod va vositalaridan kompleks foydalanishda hamkorliklarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, o'qitish metodikasini takomillashtirish maktab o'quvchilarida keng tushuncha hosil qilish, ta'lim-tarbiya jarayoniga mas'uliyatlilikni shakllantirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbir etishda ham umumta'lim maktablarining biologiya ta'lim jarayonida



o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'qitishni shakllantirish jarayoni deganda o'quvchilarning muayyan o'quv materialini o'zlashtirish, bilish usullarini egallashga qaratilgan o'quv bilish faoliyati va oqituvchining mazkur jarayonni tashkil etish ba boshqarishga asoslangan pedagogik faoliyati orqali o'zaro hamkorlikda o'quv maqsadlariga erishiladigan jarayon tushiniladi. Xususan, biologiya o'qitish metodikasiga oid manbalarda o'qitish jarayoni va uning shakllariga turlicha ta'rif berilgan o'quvchilar tomonidan biologiya o'quv fani dasturlari bilan meyorlangan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni o'qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqazo etadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ekologik ta'lim dolzarb muammolarni hal etishda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda nega aynan hozirgi kunda ekologik ta'lim - tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda? Degani o'rinli savol tug'iladi. Insonlarning tabiatga nisbatan atrof-muhidni buzulishiga olib kelmoqda, natijada o'simlik va hayvonlarning ayrim turlari yo'q bo'lib ketmoqda bu ekologik muozanatning buzulishiga olib keladi.

Maktab o'quvchilarida atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatni takomillashtirish xulq atvor tarbiyasi bo'lib uni eng kichik yoshdan boshlash talab etiladi. Jumladan:

- ta'lim mazmunini muammoli o'quv vaziyatlarini yaratish orqali o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish shaxsiy sifatlarini tarkib topdirish;
- o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini aniq obyektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etishga o'rgatish orqali Milliy o'quv dasturi asosida meyorlangan bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish barobarida o'quvchilar tomonidan ijobiy faoliyat tajribalarini egallashishiga erishish vazifalari amalga oshiriladi.

Maktab o'quvchilarida atrof muhitni muhofaza qilishda mas'uliyatlilikni takomillashtirishda o'quvchilarning biosferaga bo'lgan munosabati muhim o'rin tutadi. Jamiyat va tabiiy muhidning o'zaro ta'siri ahamiyati o'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish vazifasini ta'minladi. O'qituvchilar va ota-onalar maktab o'quvchilarini tabiatdagi xulq atvor qoidalariga ko'ra bilish mumkinligini bilishadi. Shu bilan birga o'quv va darsdan tashqari faoliyatning barcha shakllari va turlari yaqin munosabatda bo'lishi kerak.

E'tirof etish kerakki XX asrning 20-yillarida atrof-muhit yuzasidan ilgari surilgan innovasion g'oyalar mahalliy va xorijiy pedagogikada yanada rivojlanib, ekologik ta'lim jarayonining xususiyatlariga mos keladigan va hozirgi zamon nuqtai nazaridan optimallashtirish yo'llarini o'zida mujassam etgan bir qator tushunchalar va amaliy modellar uchun zamin bo'ldi desak etarli asos bor. Bunga



misol sifatida maktab va jamiyatning tarbiyaviy sa'y-harakatlarini birlashtirish, ularni atrof-muhit bilan bog'liq jihatlarini takomillashtirish ta'lim muassasalari va boshqa modellar loyihasini zamon nuqtai nazaridan kelib chiqib tavsiya etishgan. Ushbu maktablarni yaratish bo'yicha birinchi loyihalar Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa mamlakatlar amaliyotida keng qo'llanila boshlagan.

Mazkur ta'lim muassasalari an'anaviy ta'lim modelidan farqli o'laroq, norasmiy va ochiq ta'lim tizimi asosida tashkil etilganligi bilan ajralib turardi. An'anaviy sinflar o'rniga - o'yin maydonchalari, zallar, jamoaviy va individual darslar uchun turli burchaklar, moslashuvchan jadval, rejalar va dasturlarning tizimlilik negizida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati uyg'unlikda tashkil etilgan. Sinfdagi ijtimoiy psixologik muhit, oilaviy muhit munosabatlarga yaqinlashirilgan. Bu kabi maktablarning ochiq tizimi o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan hududiy va mahalliy dolzarb muammolarni bartaraf etishda yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qildi. Mana shu faoliyat atrofni ifloslantiradigan vositalarga qarshi kurashning tashabbuskori bo'lib maktab o'quvchilarini ekologik masalalarga ongli va mas'uliyat bilan yondashuvini asoslaydi.

Ushbu masalani g'arb mamlakatlari xususan, Germaniya misolida olib qaraydigan bo'lsak o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchi va ularning o'qituvchilari ko'p vaqtlarini maktabdan tashqari - muzeylarda, shahar sanoat muassasalarida, jamoat tashkilotlarida va shahar xizmatlarida faoliyatini tashkil etadi. Bu jarayon amaliyotda ekologik tarbiya va ta'limda muvaffaqiyatli natijalarga erishishni ta'minlab, ijtimoiy faollikning oshishiga olib keladi. Ya'ni, o'quvchilarda aniq faoliyatni amalga oshirish, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda oqilona xatti-harakatlarni tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy muammolarning ahamiyati hamda rivojlanish dinamikasini yaxshiroq tushunishga olib keladi.

Davr talabidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, ta'limni insonparvarlashtirish bu ekologik madaniyatni ichiga olgan uslubiy dasturlarni ishlab chiqish hamda o'quvchilarga singdirishni taqozo etmoqda. Buning uchun ekologik ta'lim - tarbiya jarayoniga yangicha nostandart yondashuv asosida uni ichki qadr-qimmatidan mahrum qilmagan holda qayta ko'rib chiqish lozim. Bunda zamonaviy ekologik ta'lim tizimining konseptual qoidalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratish muhim deb o'ylaymiz:

- zamonaviy ekologik ta'limning maqsadi, ekologik ong va dunyoqarash, jamiyat va shaxs madaniyatini tarbiyalash hamda ekotafakkurni shakllantirish;
- atrof-muhit va ekologik ta'limning barcha tamoyillarini o'zida aks ettirgan zamonaviy konsepsiyani ekogumanizm g'oyasi bilan to'yintirish;
- ta'limning asosiy maqsadi sifatida eng avvalo o'quvchilarda tabiatga nisbatan simpatik munosabatni shakllantirish va nafosat sifatlarini tarbiyalash;



- ta’limda tabiat bilan optimistik ruhda yondashuvni o’zida aks ettirgan psixopedagogik dasturni yaratish va joriy etish;
- ekologik ta’lim yuzasidan ishlab chiqilgan zamonaviy dasturlar bir-birini mantiqiy to’ldirishi, yaxlitlikni aks ettirishi, rivojlanish dinamikasiga ega bo’lishi va ilmiy bashorat qilish;
- o’quvchilarni global miqyosda fikrlash va faoliyatini samarali tashkil etgan holda ekologik ta’limni tashkil etish hamda boshqarish.

Bundan ko’zlangan maqsad - sayyoramiz aholisining ekologik bilimini boyitish g’oyasini ilgari surish, aholida ekologik madaniyatni rivojlantirish, jamiyatning ekologik xavfsizligi haqida jamoatchilikning xabardorligini oshirish hamda har bir fuqaroni tabiatga hurmat-ehтиrom ruhida tarbiyalashni targ’ib etishdir.

Adabiyotlar:

1. Ava’zov Sh. Qishloq maktablari yuqori sinf o’quvchilarini o’lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash: p.f.n., diss. ... avtoref. Toshkent: TDPU, 1993. - 19 b.
2. Aydarov Ye.B. O’quvchilarga tabiiy hududni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish.- T.:Ilm-ziyo-zakovat. 2019.
3. Аксенова О.В. Генезис социально-экологической рефлексии на Западе во второй половине XX века // Социологические исследования. 2004. № 9. - С. 68-76.
4. Гильденков М. Ю. Проблемы экологического образования, учащихся в условиях малокомплектной сельской школы. Автореф. дисс.... канд.пед.наук. -М., 1991. -22 с.
5. Jo’rayev R.X., Turdikulov E.O. Ekologik ta’limning dolzarb muammolari va ularni hal etish yo’llari. “Uzluksiz ta’lim” jurnali. №6, 2004. -B.7-9.
6. Isakulova J.N. O’quvchilarga ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti.-T.: “Fan”, 2011.
7. Ikromov E. J., Xotamov A. A. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent: Ibn Sino, 2001. -23 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktab o’quvchilarida atrof-muhitni muhofaza qilishda mas’uliyat hissini shakllantirish, o’quvchi yoshlarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik ta’lim berish texnologiyalarini takomillashtirish, umumta’lim maktab o’quvchilarida tabiiy hududlarni muhofaza qilishga qaratilgan pedagogik muammolarning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, ekologik ta’limni rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье школа изучает охрану окружающей среды-учащийся несет ответственность за формирование чувств, за охрану природных территорий эколог обучается технологиям модернизации, общеобразовательная школа изучает природоохранные территории, педагог разрабатывает научные основы, шунингдек, экологическое образование имеет большое значение и необходимость для развития берилган.

SUMMARY

The article reveals the scientific justification of pedagogical problems aimed at protecting natural areas in schoolchildren, the formation of a sense of responsibility in Environmental Protection, improving technologies for providing environmental education to young students through the protection of natural areas, as well as the importance and necessity of developing environmental education.